

## **ILMIY TADQIQOTDA SOTSIOMETRIYA METODIDAN FOYDALANISH**

**T. Kazyeva**

Andijon davlat universiteti

Pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu tadqiqot jarayonida sotsiometriya metodidan foydalanish haqida soʻz boradi. Ilmiy tadqiqot jarayonida ushbu metod afzalliklari hamda uning oʻrni haqida ham muhokama qilinadi.*

***Kalit soʻzlar:** sotsiometriya, tabiatshunoslik, ilmiy tadqiqot, metod, mikromuhit, ijtimoiy munosabat.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается использование социометрии в научных исследованиях. Также обсуждаются преимущества этого метода и его роль в исследовательском процессе.*

***Ключевые слова:** социометрия, естественные науки, исследование, метод, микросреда, социальные отношения.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the use of sociometry in scientific research. The advantages of this method and its role in the research process are also discussed.*

***Keywords:** sociometry, natural sciences, research, method, microenvironment, social relations.*

### **KIRISH**

Ilmiy tadqiqotning asosiy ob'ekti (predmeti) inson va jamiyat, ular o'rtasidagi munosabatlardir. Bu o'rinda tabiatshunoslikka oid tadqiqotlar nazarda tutilmaydi. Ijtimoiy gumanitar sohadagi tadqiqotlarning barchasi u yoki bu darajada inson va jamiyat hayotini o'rganishga borib taqaladi. Sotsiometriya shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etish metodidir. Uning ob'ekti kishilar, guruhlar o'rtasidagi kechadigan ijtimoiy, dialogik munosabatlar, shaxsning guruhda tutgan o'rni, guruhda shakllangan normalarga aloqalaridir. Pirovard natijada bu masalalar ijtimoiy xarakter kasb etadi. Sotsiologiyada shaxs va mikromuhit o'rtasidagi munosabatlarni sotsiometrik o'lchash, o'rganish keng tarqalgan. Shuning uchun sotsio-metriya eng avvalo shaxs va mikromuhit aloqalarini o'rganishga qaratiladi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlarning ob'ektidir. Insonning ushbu munosabatlarni qabul qilishi yoki uni rad etishi sotsiometriyaning diqqat markazida turadi.

Mikromuhitga oila, mahalla, mehnat jamoasi, o'quvchi-talabalar guruhlari, ma'lum bir maqsad asosida birlashgan uyushmada shakl-langan munosabatlar kiradi. Bu munosabatlar anglangan maqsadga quriladi. Mikromuhit uzoq maqsad yoki qisqa maqsad asosida yuzaga kelishi mumkin. Mehnat jamoasi yoki talabalar guruhidagi muhit uzoq maqsadga, yo'lovchilar yoki konsert tomoshabinlari guruhidagi muhit qisqa muddatli maqsad asosiga quriladi. Sotsiometriya shaxslararo munosabatlarni kuzatish, o'rganish va o'lchash imkoniga ega bo'lgan kichik guruh yoki mehnat jamoasida qo'llaniladi. Guruh yoki mehnat jamoasida kishilar soni o'n besh-yigirma nafardan oshsa, sotsiometriyani qo'llash qiyin. Demak, sotsiometriya kichik guruhdagi shaxslararo munosabatlarni o'rganadi. Shaxsning mikromuhitdagi o'rni ijtimoiy, huquqiy, axloqiy mavqei bilan o'lchanadi. Ijtimoiy mavqe shaxsning ma'lum bir guruhga a'zo ekanini, ushbu mavqe uni jamiyatdagi o'rnini ham ifoda etadigan belgidir. Masalan, shaxsning siyosiy partiyaga a'zo ekani uning ijtimoiy mavqeidan darak beradi. Ammo uning siyosiy partiya boshlang'ich tashkiloti yoki rayosatidagi o'rni, ulardagi aloqalari sotsiometriya metodining tadqiqot ob'ektidir.

Shaxsning huquqiy mavqei tayinlangan vazifasi yoki lavozimi, o'zining konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalanishi kabilarda namoyon bo'ladi. Agar u guruhda rahbarlik lavozimini egallagan bo'lsa, uning huquqiy mavqei rasmiy ahamiyat kasb etadi va guruh a'zolariga ta'sir doirasi kengayadi. Sotsiometriya guruh rahbari bilan guruh a'zolari o'rtasida kechadigan rasmiy va norasmiy munosabatlarni kuzatadi. Rasmiy munosabatlar rahbarning o'z huquqlaridan qanday foydalanishini va guruh a'zolarining o'z vazifalariga, rasmiy rahbarga, uning ko'rsatma va talablariga munosabatlarni ifodalaydi. Ular guruhdagi jarayonlarning huquqiy normalar doirasida kechishini ta'minlaydi. Demak, shaxs mikromuhitdagi rasmiy normalar va munosabatlarga rioya etadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJA**

Mikromuhitda rasmiy aloqalar bilan birga norasmiy, axloqiy normalarga asoslangan munosabatlar ham amal qiladi. Guruhdagi axloqiy muhit goho rasmiy munosabatlarni yetaklab keladi. Kuza-tishlardan ma'lumki, guruhdagi rasmiy munosabatlar shaxsning faolligiga, boshqalar bilan aloqalariga, vazifalarini to'liq va o'z vaqtida bajarishiga ta'sir etadi. Lekin ular norasmiy, axloqiy aloqalar bilan to'ldirilganida, shaxsda o'zining faoliyatidan qoniqish uyg'otadi, mikromuhitda yuksak axloqiy normalarni qaror toptiradi.

Mikromuhit shaxsning fikrlash tarziga ta'sir etadi. Unda u yoki bu voqea-hodisalarga nisbatan munosabat uyg'otadi, korporativ fikr, maqsad, ideal uning uchun ham mezonga aylanadi.

Mikromuhitda shakllangan normalar shaxs hurfikrligini, guruhdagi plyuralizmni inkor qilmaydi. Bu o‘rinda shaxs va guruh, xususiy va umumiy o‘rtasida aloqalar yuzaga keladi. Ushbu aloqalar hech qachon tayyor modellarga muvofiq kechmaydi, ular o‘rtasida kutilmagan to‘qnashuvlar, yondashuvlar va fikrlar plyuralizmi yuzaga keladi. Sotsiometriya ushbu rang-barang yondashuvlarni kuzatadi, ularni umumiy maqsadga yo‘naltirishning samarali usullarini izlaydi. Mikromuhit shaxslar orqali ijtimoiy munosabatlarga, jamiyat hayotiga ta‘sir etadi. Demak, sotsiometriya faqat guruh ichidagi munosabatlarni emas, u shaxsning ijtimoiylashuvini ham o‘rganadi.

Mikromuhitda dialogik va monologik munosabatlar kechishi kuzatiladi. Dialogik munosabatlarga shaxslar o‘rtasida tenghuquq-likka, plyuralizmga, demokratik tamoyillarga muvofiq kechadigan aloqalar nazarda tutiladi. Dialog – bir-birini tinglash, eshitish, tushunishga intilish – ushbu metodning xususiyatidir.

Dialog bir maqsadga yo‘naltirilgan shaxslar o‘rtasida pozitiv ko‘rinishda keladi. Unda shaxslar o‘zaro teng aloqalarga kirishib, til topishib, bir-birini to‘g‘ri anglab, hamkorlik qilish ustunlik qiladi. Dialog ratsional, konstruktiv xususiyatga ega bo‘lsa, pozitiv ahamiyat kasb etadi. Sotsiometriya dialogik munosabatlardagi pozitiv tomonlarni o‘rganishga qaratiladi. To‘g‘ri, ba‘zan dialog cho‘zilib ketishi, ziddiyatli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holda sotsiometriya ularni ob‘ektiv voqelik sifatida qabul qilishi, ammo ularni pozitiv tomonga yo‘naltirish usullarini izlashi kerak. Monologik munosabatlar deganda guruhdagi aloqalarni bir shaxs boshqaradigan muhit, aloqalar nazarda tutiladi. Xususiy mulk sharoitida bunday boshqarishga mudom asos, imkon topiladi. Shuning uchun sotsiometriya demokratik boshqarishni xususiy korxonalar, korporatsiyalar, joriy etish mexanizmlarini topishi kerak. Sotsiometriya uchun monologik munosabatlarni to‘la bartaraf etish emas, balki ularni dialogik munosabatlar bilan to‘ldirish usullarini izlash muhimdir. Subordinatsiya va ierarxiya mavjud ekan, ulardagi monologik munosabatlar ham saqlanib qoladi. Guruh faoliyati uchun biror rasmiy shaxs mas‘ul ekan, markazlashgan boshqaruvning ahamiyati kamaymaydi. Markazlashgan boshqaruvda esa monologik munosabatlar mudom mavjud bo‘lgan.

Sotsiometriya guruhdagi dialogik va monologik munosabatlar-ning o‘ziga xos belgilarini qidiradi. Chunki ular har bir guruhda o‘ziga xos tarzda kechadi. Masalan, talabalar guruhidagi munosabatlar maktab o‘quvchilari guruhidagi yoki mehnat jamoasidagi aloqalardan farq qiladi. Bundan tashqari, guruh mikromuhitida shaxslararo turli aloqalar kechadi, ular goho bir-biriga muvofiq kelmasligi tabiiy holdir. Hech bir guruhda mutlaq dialogik yoki monologik munosabatlar ustuvor bo‘lib

qolmaydi, ular almashib shaxslararo aloqalarni rang-barang, qiziqarli, dinamik qilib turadi. Sotsiometriya ushbu jarayonlardagi ijobiy yoki salbiy tomon-larni aniqlaydi.

Sotsiometriyada kuzatish va intervyu, so‘rovnomalardan foyda-lanish muhim ahamiyatga ega.

Kuzatish sotsiometriyaning asosiy usuli hisoblanadi. Shaxs-lararo munosabatlarni bevosita kuzatish tadqiqotchiga qimmatli materiallar beradi. Kuzatish jarayonida u simpatiya va antipatiya, o‘zaro hamkorlik va xayrixohlik, korporativ manfaatning shaxslar manfaatiga aylanishi, fidoyilikning shakllanishi kabi ijtimoiy psixologik holatlarni aniqlaydi, ularni baholaydi. Sotsiometriya tadqiqotchining bevosita kuzatishini taqozo etadi, unda bilvosita kuzatish maqsadga muvofiq emas.

Sotsiometriya intervyu va so‘rovnomalar orqali boyitiladi. Intervyu guruh a‘zolarining mikromuhitga, burchiga munosabat-larini aniqlashga yordam beradi. Sotsiometrik kuzatishlar natija-larini umumlashtirishda intervyu va so‘rovnomalar natijalariga tayanish ob‘ektiv xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Intervyu va so‘rovnomalar ilmiy maqsaddan yoki gipotezadan kelib chiqib tuziladi. Ular sotsiometrik kuzatishga yordamchi usullar sifatida keladi, uni savol-javoblar bilan to‘ldiradi. Agar so‘rov-nomadagi javoblar respondentning u yoki bu savolga munosabatini bildirsa, sotsiometriyadagi javoblar respondentlarning o‘zaro munosabatlarini anglatadi. Sotsiometriyada olingan javoblar sotsiogramma yoki sotsiomatritsa ko‘rinishidagi chizmalarda ifoda-lanadi. Tadqiqotchilar ularni «sotsiogramma savol-javobi» yoki «sotsiomatritsa savol-javobi» deb ham atashadi.

Sotsiogrammada kichik guruh a‘zolari harflar, raqamlar, rangli qog‘ozlar yoki boshqa belgilar bilan tasvirlanadi, ular o‘rtasida aloqalar ana shu belgilarning u yoki bu shaxs (respondent) tomon siljishiga qarab aniqlanadi. Masalan, «Guruhda kim tashkilot-chilik fazilatlariga ega?», degan savolga 4 kishi – qora rang, 2 kishi – qizil rang, yana 2 kishi – oq rang, 1 kishi yashil rang egasini ko‘rsatsa, demak, ko‘pchilik qora rang egasini qo‘llab-quvvatlayotgani ma‘lum bo‘ladi. Mazkur javoblar jadval-chiziqqlar tarzida, odatda bir-birlari bilan kesishgan tasvirda bo‘ladi.

Sotsiogramma ko‘pincha guruh a‘zolarining mavqeiga yoki makonda (sinfda, guruhda, ish joyida) egallagan o‘rniga qarab tasvirlanadi va ularning savollarga javoblari (aslida bir-biriga munosabat-lari) ana shu tasvirga muvofiq joylashtiriladi. Tasvirda kim tomon ko‘p chiziq tortilsa, o‘sha ko‘proq tashkilotchilik xislatiga ega ekani, guruh a‘zolari uning tashkilotchiligiga ishonishi ma‘lum bo‘ladi.

Sotsiomatritsa jadval tarzida ifodalanadi. Unda guruh a‘zo-lari raqamlar yoki harflar bilan belgilanib, o‘zaro munosabatlar javoblar kesishgan kvadratlarda aks etadi. Kim ko‘p ovoz olsa, uning tashkilotchilik xislatiga shuncha guruh a‘zosi

ishonishi ma'lum bo'ladi. Shu bilan birga, sotsiometrik tasvirlarda guruh ichidagi ichki munosabatlar, antipatiya (yoqtirmaslik) va simpatiya (xayri-xohlik) kabi psixologik holatlar o'z aksini topadi. Tadqiqotchi ushbu tasvirlardan foydalanganda murakkab munosabatlarni olin-gan javoblar va tasvirlar orqali ifoda etadi, bu esa mikromuhit haqida aniq tasavvur uyg'otadi. Eng muhimi ilmiy maqsadga xizmat qiladigan savollar tuzishdir.

### **XULOSA**

Sotsiometriya faqat kichik guruhlardagi muhitni o'rganishni nazarda tutmaydi, ushbu mikromuhitdan olingan javoblarni katta guruhlariga, hatto jamiyatga ekstropolyatsiya (tatbiq etish) qiladi. Mikromuhitdan olingan kuzatishlar va o'lchovlardan katta guruh-larga, jamiyatga oid xulosalar chiqariladi. Bu o'rinda kichik guruh katta guruhlar yoki jamiyatning kuzatish mumkin bo'lgan kichiklash-tirilgan modeli sifatida qaraladi. To'g'ri, kichik guruhdan olingan javoblar har doim ham katta guruhlardagi yoki jamiyatdagi muhitga, ijtimoiy-psixologik munosabatlarga muvofiq kelavermaydi. Tadqiqotchi ekstropolyatsiyani mutlaqlashtirmasligi kerak; sotsio-metriya ilmiy tadqiqotlardan biridir. Kishilararo munosabatlarni bir metod bilan to'la, ob'ektiv baholash mumkin emas.

### **REFERENCES**

1. Methods of research on teaching the english language arts: the methodology chapters from the handbook of research on teaching the english language arts (2nd ed.). James Flood, Diane Lapp, James R. Squire, and Julie M. Jensen (Eds.). Mahwah, NJ: Erlbaum, 2005.
2. Dörnyei, Z. (2007). Research methods in applied linguistics: Quantitative, qualitative, and mixed methodologies. Oxford, UK & New York: Oxford University Press. ISBN: 978-0-19-442258
3. Brown, J. D. (2001). Using surveys in language programs. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Шермухаммедова Н. Фалсафа ва фан методологияси.-Т., 2005. Б. 183.
5. Юсупова Ш. Тил таълими ва фалсафа. – Т.: Мумтоз сўз, 2009.
6. Матчонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. –Т.: Ўқитувчи, 1996.